

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 2 martdagi «Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumanida 2017 yil paxta hosilini etishtirishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar va ularni kelgusida bartaraf etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi 160-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi

#### **QAROR QILADI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 2 martdagi «Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumanida 2017 yil paxta hosilini etishtirishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar va ularni kelgusida bartaraf etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi 160-sonli qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yuqoridagi qarori bilan quyidagilar:

a) Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumanida;

paxta hosilini etishtirish va uni yig'ib-terib olishda jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi, yil davomida xotirjamlikka berilib, g'ozga parvarishida agrotexnika tadbirlari belgilangan muddatda sifatli o'tkazilmaganligi uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani hokimi G'.Xadjiev egallab turgan lavozimidan ozod etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinganligi;

paxta hosilini etishtiruvchi fermer xo'jaliklari bilan tayyorlovchi va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar o'rtasida debitor-kreditor qarzdorliklarning o'sishiga yo'l qo'yganligi uchun tuman hokimining iqtisodiyot va tadbirkorlik masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari R.Shamuratov qattiq ogohlantirilganligi;

b) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat soliq qo'mitasiga tegishli ravishda bir oy muddatda tuman prokurori, tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'i, tuman davlat soliq inspeksiyasi boshlig'iga nisbatan yo'l qo'yilgan kamchiliklar uchun belgilangan tartibda tegishli choralar ko'rish tavsiya etilganligi;

v) Paxta etishtiruvchi fermer xo'jaliklari bilan tayyorlovchi va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar o'rtasida mavjud bo'lgan debitor va kreditor qarzdorliklarini undirish bo'yicha 4 ta sektor rahbarlariga o'rnatilgan tartibda zarur choralarni ko'rish topshirilganligi;

g) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasiga mavjud kreditor qarzdorliklarni belgilangan tartibda undirish tavsiya etilganligi;

d) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi mazkur qaror ijrosi bo'yicha har chorakda Xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyasida tumandagi 4 ta sektor rahbarlarining hisobotlarini eshitib borishi hamda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari Z.T.Mirzaevga axborot berish topshirilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

To'rtko'l tumanida 2017 yil paxta hosilini etishtirish va shartnoma majburiyatlarini bajarishda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlari dasturi 1-ilovaga muvofiq;

Fermer xo'jaliklariga qishloq xo'jaligi texnikasi va mexanizmlari etkazib berishning 2018-2019 yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq;

Barcha toifadagi fermer xo'jaliklarining xizmat ko'rsatuvchi va ta'minotchi tashkilotlar oldidagi kreditor qarzdorliklarini undirishining reja jadvali 3-ilovaga muvofiq;

2018 yilda fermer xo'jaliklari tomonidan ekin maydonlaridan tashqarida qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan erlarda engil konstruksiyali va kam xarajatli dala shiyponlar va issiqxonalar qurish, parranda, sog'in sigir hamda asalari boqishni tashkil etishning prognoz ko'rsatkichlari 4-ilovaga muvofiq;

2018 yilda fermer xo'jaliklari tomonidan paxta va g'alla ekinlari ekiladigan er maydonlari atroflaridagi dala chetlarining hisob-kitobi 5-ilovaga muvofiq;

Fermer xo'jaliklari tomonidan 2018 yil hosili uchun kuzgi boshqoqli don ekinlari va chigit ekiladigan maydonlar atroflaridagi dala chetlariga qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish hamda mahsulot ishlab chiqarishning prognoz ko'rsatkichlari 6 va 6a -ilovalarga muvofiq;

2018 yilda kuzgi boshqoqli don ekinlaridan bo'shaydigan maydonlarga takroriy ekinlarni joylashtirishning prognoz ko'rsatkichlari 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, er resurslari va davlat kadastr boshqarmasi To'rtko'l tumani hokimligi bilan birgalikda 2018 yilning 10 martiga qadar tumanda 2018 yil hosili uchun ekiladigan ekinlarning tuproq-iqlim sharoitlarini inobatga olgan holda oqilona joylashtirilishini ta'minlasinlar.

5. O'zbekiston qishloq xo'jaligi ilmiy-ishlab chiqarish markazi Qoraqalpog'iston bo'limi tumanlar hokimliklari bilan birgalikda 2018 yilda fermer xo'jaliklarida rejalashtirilgan ekinlarni parvarishlash, zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurashish hamda agrotexnika tadbirlarini o'z vaqtida amalga oshirish yuzasidan 2018 yilning mart oyida tumanlarda fermer xo'jaliklari uchun ko'rgazmali seminarlar o'tkazilishini va mavsum davomida amaliy yordam ko'rsatilishini ta'minlasin.

6. Mazkur qaror ijrosi bo'yicha har chorakda tumandagi 4 ta sektor rahbarlari amalga oshirilgan ishlari yuzasidan Vazirlar Kengashiga axborot berib borsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni o`z zimnamda qoldiraman.

**Qoraqalpog`iston Respublikasi**

**Vazirlar Kengashining Raisi**

**Q.Sariev**

*Ko'rib chiqildi:*

- 
- 
- 

[Vazirlar Kengashi](#) [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)  
[Vazirliklar va idoralar](#) [Shahar va tuman hokimliklari](#)  
[Hujjatlar](#) [Respublika mehmonlariga](#) [Elektron hukumat](#) [Interaktiv davlat xizmatlar](#)